



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30601/2414-1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 12.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Solijonova Marxabo Ahmadali qizi

Andijon davlat pedagogika universiteti

Uzbekistan

[dunyoyangiliklarit39@gmail.com](mailto:dunyoyangiliklarit39@gmail.com)

### LISHAYNIKLAR BO'LIMI TAVSIFI, TALLOMINING TUZILISHI, XILLARI, TABIATDA VA XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

**Abstract:** This article describes the description of lichens, the structure and types of lichens, their importance in nature and economy. Despite the fact that lichens are distributed in the most difficult living conditions, they cannot withstand air pollution. That is why they rarely grow in urban conditions. In general, lichens are also used in the preparation of expensive paints and perfumery products.

**Keywords:** Lichen, fungus, basidia lichen, bushy lichen, pioneer.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lishayniklar bo'limi tavsifi, tallomining tuzilishi, xillari, tabiatda va xalq xo'jaligidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Lishayniklar yashash sharoiti eng qiyin joylarda tarqalganligiga qaramasdan havoning ifloslanishiga bardosh bera olmaydi. Shuning uchun ham ular shahar sharoitida kam o'sadi. Umuman esa lishayniklar toshlarda o'sib, ularni parchalaydi va tuproq hosil qilishda katta rol o'ynaydi. Shuningdek, lishayniklar qimmatbaho bo'yoqlar, parfumeriya mahsulotlari tayyorlashda ham ishlatiladi.

**Kalit so'zlar:** Lishaynik, zamburug', bazidiyali lishaynik, butasimon lishaynik, pioner.

**Аннотация:** В данной статье дано описание лишайников, строение и виды лишайников, их значение в природе и хозяйстве. Несмотря на то, что лишайники распространены в самых тяжелых условиях обитания, они не выдерживают загрязнения воздуха. Именно поэтому они редко растут в городских условиях. В целом лишайники также используются при приготовлении дорогих красок и парфюмерной продукции.

**Ключевые слова:** Лишайник, гриб, базидийский лишайник, кустистый лишайник, пионер.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Solijonova, M. (2024). DESCRIPTION OF THE LICHEN DIVISION, STRUCTURE OF THE THALLUM, TYPES, IMPORTANCE IN NATURE AND IN THE NATIONAL ECONOMY. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(9), 88–91. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1219>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14445632>

Lishayniklar (Lichenes) - zamburug'larning maxsus bir guruhi; suv o'tlari va zamburug'lardan tarkib topgan tirik organizmlar kompleksi. Ayrim botaniklar lishayniklarga tuban o'simliklarning alohida bir guruhi sifatida qarashadi. Lishayniklar haqidagi fan lixenologiya deb ataladi. 400 turkumga mansub 26000 turi bor. Jinssiz spora hosil qilishiga binoan, ikki sinf: xaltachali lishayniklar (ma'lum bo'lgan deyarli hamma lishayniklar) va bazidiyali lishayniklarga (bir necha o'nlab tur) ajratiladi. Ko'k-yashil, sariq-yashil yoki yashil suvo'tlar lishayniklarning doimiy komponenti hisoblanadi. Odatda, lishayniklarning har bir turiga ma'lum bir suvo't turi to'g'ri keladi. Lishayniklarning po'stloqsimon, bargsimon va butasimon shakllari bo'ladi. Po'stloqsimon lishayniklar sodda tuzilgan bo'lib, donador, g'uborsimon

yoki po'stloq shaklida. Bargsimon lishayniklar birmuncha murakkab tuzilgan, plastinkalar ko'rinishida. Butasimon lishayniklar ancha murakkab tuzilgan bo'lib, shoxlari osilib tushgan yoki tik o'sadigan o'simlik tupini eslatadi. Lishayniklar anatomik tuzilishiga ko'ra gomomer (suvo'tlar lishayniklar tanasi bo'ylab tekis tarqalgan) va geteromer (suvo'tlar lishayniklar tanasining faqat ustki po'stlog'i ostida joylashgan) bo'ladi. Lishayniklar jinsiy, jinssiz vegetativ ko'payadi. Jinssiz ko'payishda lishayniklar zamburug'i sporalari xaltachalarda (xaltachali lishayniklar) yoki ba'zan, bazidiyalarda (bazidiyali lishayniklar) hosil bo'ladi. Jinssiz ko'payishda konidiyalar va piknosporalar vujudga keladi. Zamburug' sporalari o'sadi va o'ziga mos suvo't turi bilan birlashib, yangi lishayniklar tallomi — vegetativ tana hosil

qiladi. Lishayniklar tallomning kichik qismi orqali vegetativ ko'payadi. Lishayniklardagi suvo'tlar bo'linib, yashil suvo'tlar esa avtosporalar hosil qilib ko'payadi. Jinsiy ko'payishda esa lishayniklar tanasidagi suvo'tlar va zamburug'lar alohida ko'payadi. Ikki xil organizmning hosilasi bo'lganligi uchun lishayniklarning ko'payishi ham o'ziga xos. Lishaynik tarkibidagi suvo'tlari faqat bo'linib, hujayralar miqdorini oshirib borishi mumkin. Jinssiz va jinsiy ko'payish jarayonlari ularda kuzatilmaydi. Zamburug'lar esa vegetativ ko'payishdan tashqari qaysi guruhga mansubligiga qarab, yoki xaltacha va xaltachasporalar, yoki bazidiya bazidiosporalar hosil qilib ko'payishi mumkin. Lekin ular hosil qilgan jinsiy ko'payish hosilalari tarqalgach, o'ziga xos bo'lgan, erkin yashovchi suvo'tlarini uchratgandagina yangi lishayniklarning tallomini hosil qiladi. Ayrim lishayniklarda hosil bo'ladigan jinsiy ko'payish hosilalari tarqalish jarayonida o'zi bilan birga tallomidagi suvo'tlarning hujayrasini ham yopishtirib olib ketadi. Vegetativ ko'payishning yana bir xilida ham deyarli shunga o'xshash jarayon kuzatiladi. Faqat bu holda suvo'ti va zamburug'lar aralashmasi ustki tomonidan zamburug'larning qalin qobiqli maxsus hujayralari bilan qoplangan bo'ladi. Suvo'tlardagi fotosintez tezligi lishayniklar

tallomidagi suvning miqdoriga bog'liq. Lishayniklar qurib qolsa, fotosintez sekinlashadi yoki to'xtaydi. Po'stloqsimon lishayniklar butasimon lishayniklarga nisbatan sekin o'sadi. Lishayniklar yiliga o'rtacha 0,01 mm dan 100 mm gacha o'sadi. Haroratning ko'tarilishi yoki pasayishi lishayniklarga uncha ta'sir qilmaydi. Lishayniklar yaxshi yoritilgan turli xil substratlarda — daraxtlar, tog' jinslari, tuproq va yashil o'simliklar barglarida, teri, suyak, qog'oz, shisha, temir va boshqa buyumlar sirtida uchraydi. Lishayniklar hamma materiklarda mavjud. Tropik va subtropik mintaqalarda, ayniqsa, tundra va baland tog'larda keng tarqalgan. Yaqingacha lishayniklar tanasidagi zamburug'lar bilan suv o'tlari orasidagi o'zaro munosabat simbioz sifatida tushuntirib kelingan edi. Haqiqatda esa ular orasidagi munosabat paratizmga asoslangan bo'lib, ayniqsa, zamburug'ning parazitlik xususiyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Lishayniklar unumsiz joylarda o'sishi tufayli boshqa o'simliklar uchun zamin tayyorlaydi. Ba'zi butasimon lishayniklar esa bug'ularning asosiy ozig'i hisoblanadi. Dorivor (ichni keltiradigan, yumshatadigan, qon bosimini oshiradigan, vitaminli, antibiotikli) lishayniklar ham bor. Lishayniklardan mikroblarga qarshi dorivor preparatlar ham olingan. Ayrim lishayniklardan parfyumeriya

sanoatida, lakmus va bo‘yoq tayyor-lashda foydalaniladi. Daraxtlar tanasida o‘sadigan po‘stloq lishayniklari zararkunanda hasharotlar uchun pana joy bo‘lganligi sababli salbiy ahamiyatga ega. Lishayniklar yashash sharoiti eng qiyin joylarda tarqalganligiga qaramasdan havoning ifloslanishiga bardosh bera olmaydi. Shuning uchun ham ular shahar sharoitida kam o‘sadi. Umuman olganda esa lishayniklarning suvsiz, oziqa muhiti deyarli bo‘lmagan joylarda o‘shishini hisobga olib,

ularni o‘simliklarning „pioner“i deb atashadi. Lishayniklarning tabiatdagi ahamiyati ham beqiyos kattadir. Tundra sharoitida o‘sadigan lishayniklar bug‘ular uchun asosiy oziqa hisoblanadi. Umuman esa lishayniklar toshlarda o‘sib, ularni parchalaydi va tuproq hosil qilishda katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, lishayniklar qimmatbaho bo‘yoqlar, parfumeriya mahsulotlari tayyorlashda ham ishlatiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zaxarov V.B., Mamatov S., *Общая биология*. М., 2002;
2. Chyen-sov Yu.S., *Общая цитология*, М.; 1984;
3. Grin N., Staut U., Teylor D., *Биология*, t. 1—3. М., 1990;
4. Mavlonov O., *Биология (Ma'lumotnoma)*, Т., 2003.
5. Grin.N va boshq. *Биология*. 1990y.
6. Troshin. A.S va boshq. *Ситология*. 1970y-.
7. Boyqobilov. T.B, X.Ikromov *Ситология*. 1980y.